

---

## Farg'ona shahridagi "Saxovat" keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uyida monitoring tashrifi amalga oshirildi

Aniqlanishicha, ushbu "Saxovat uyi"da jami 148 nafar fuqarolarga xizmat ko'rsatiladi. Asosan qaramog'ida xech kimi yo'q yolg'iz, nogironligi bo'lgan bemorlar yashab, davolanadi. Ulardan ayollar 47 nafar, erkaklar 101 nafarni tashkil qiladi. "Saxovat uyi"dagi fuqarolardan I-guruh nogironlari 18 nafar, II-guruh nogironlari 21 nafar, bolalikdan nogiron bo'lganlar 19 nafar, o'zgalar parvarishiga muxtojlar(yurolmaydiganlar) 54 nafar, yordamchi vositalar bilan yuruvchilar 37 nafar, o'zgalar parvarishiga muxtoj bo'lmaganlar 57 nafardan iborat.

Shulardan o'zbeklar 71, ruslar 45, qozoqlar 3, tatarlar 18, boshqa millatlardan yashab davolanayotganlar 11 nafar bo'lib, ushbu bemorlarga jami 94 nafar xodimlar, ya'ni 8 nafar shifokor, 39 nafar hamshira va 47 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat ko'rsatadilar.

Monitoring jarayonida "Saxovat uyi"dagi bemorlarga yaratilgan sharoitlar, oziq-ovqat ta'minoti, davolanayotgan bemorlarning tibbiy holati o'rganildi. Davolanayotgan bemorlarning 18 nafari bilan ommaviy, 2 nafari bilan yakkama-yakka uchrashib, suxbat o'tkazildi.

Suxbat jarayonida bemor N.Axunov 22.04.2019 yildan va N.Glebova 29.03.2018 yildan beri yashab, davolanib kelishayotganini ma'lum qilishdi. O'tkazilgan suxbatda ularga o'z vaqtida kerakli muolajalar o'tkazilayotganligi, tibbiy xizmatdan e'tirozlari yo'qligi, oziq-ovqat ta'minotidan xam shikoyatlari yo'qligini bildirdilar.

Shuningdek, bemor O.Zыkov bilan o'tkazilgan suxbatda u 1953 yilda tug'ilgani, unga onasi L.Zыkova o'ziga tegishli bo'lgan Yangier shahar, Meliorativ ko'chasi, 51-uy, 15-xonadonni 2007 yilda meros sifatida notarius orqali rasmiylashtirib bergani, 2009 yildan 2018 yilgacha sodir qilgan jinoyati uchun jazoni o'tab kelganidan so'ng ushbu xonadonda boshqalar yashab kelayotganini bilgani, o'ziga tegishli bo'lgan mulkni qonun talablari asosida qaytarilishida amaliy yordam berishni so'radi. Fuqaro O.Zыkovdan ushbu masalaga tegishli bo'lgan mavjud xujjatlar olinib, Ombudsmanning Sirdaryo viloyati mintaqaviy vakiliga yuborildi. Murojaatni qonun asosida xal qilish, ko'rib chiqish natijalari xaqida muallifga javob yuborish so'raldi. "Saxovat uyi"dagi oshxona ko'zdan kechirilganda belgilangan menyularga asosan taomlar tayyorlanib, oziq-ovqat maxsulotlari to'liq va taomnomaga mos ravishda 5 mahal berilayotganligi ma'lum bo'ldi.

Monitoring o'rganishlari davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

A.Kamilov,Ombudsmanning Farg'ona viloyati mintaqaviy vakili.

2022-12-18 21:19:45